


II. SANOAT

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 5 679,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 92,9 foizni tashkil etdi (2020 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 116,0 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,4 foizni (ishlab chiqarish indeksi 125,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 1,1 foizni (ishlab chiqarish indeksi 98,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 54,4 %) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2021 yilning yanvar-sentabr)


	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	5 679,8	113,8
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	89,1	54,4
<i>ulardan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	89,1	54,4
Qayta ishlash sanoati	5 274,6	116,0
<i>undan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	785,9	102,3
ichimliklar ishlab chiqarish	18,1	78,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 521,3	115,6
kiyim ishlab chiqarish	298,8	118,4
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	2,1	117,0
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	34,5	193,6
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	17,0	90,8
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	7,4	228,6
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	60,4	112,6
farmatsevtika	0,2	52,5
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	184,7	133,9

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	3,0	86,3
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 105,9	135,0
metallurgiya sanoati	95,1	86,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	37,6	129,8
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	264,7	92,1
komp'yuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	1,8	46,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	85,5	0,6
Mebel' ishlab chiqarish	136,7	118,2
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	66,0	180,9
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	39,8	157,9
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	508,1	0,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	249,1	125,2
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	67,0	98,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (92,9 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 5 679,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 113,8 foizni tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi
(foiz hisobida)



Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 32,3 foiz ulushini), Do'stlik (10,0 %) va G'allaorol (11,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish**
(yirik korxonalar bo'yicha)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021 yil yanvar- sentabr</i>	<i>2020 yilning yanvar- sentabriga nisbatan foiz</i>
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	112 365	177,3
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	31 083,0	150,6
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	18 089,0	103,3
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	5 352,0	458,6
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	1 788,0	220,7
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	5 854,0	809,7
Paxta chigiti	t	48 052,0	103,9
Momiq	t	2 810,5	127,6
Tozalangan paxta yog'i	t	3 191,0	53,4
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	13 489,0	51,1
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	352,0	59,5
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	94,0	22,7
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	47 296,9	96,8
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	28 837,0	93,0
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 963,0	135,0
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	29 043,5	193,6


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish natijasida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish 2020 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 120,9 foizga va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushini esa o‘tgan yilning mos davriga 44,5 foizga oshgan .

Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-sentabr



2021 yil yanvar-sentabr




■ Oziq-ovqat mahsulotlari

■ Nooziq-ovqat mahsulotlari


Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G‘allaorol (309,3 %) va Paxtakor (122,1 %), Zarbdor (133,7 %) hamda Armasoy (132,9 %) tumanlarida yuqori o‘shish kuzatilgan.

2021 yilning 1 oktabr holatiga hududlarning iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar Jizzax shahri (29,1 %), G‘allaorol (19,5 %), Forish (7,4 %) va Paxtakor (6,9 %) tumanlari hisoblanadi.

Hududlarning iste‘mol tovarlaridagi ulushi
(foiz hisobida)



2021 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




2020 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi.


Mazkur dastur doirasida 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 2 329,3 mlrd. soʻmlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 30 099,9 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 1 028 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.




2021 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar boʻyicha sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2021 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




2021 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (45,2 %), Arnasoy (49,8 %) va Paxtakor (68,7 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.

2021 yilning 1 oktabr holatiga viloyatda 3 333 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 628 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.

**Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
kichik biznes korxonalari, birlikda**
(2021 yilning 1 oktabr holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (176 ta) hamda G'allaorol tumanida (109 ta), Sharof Rashidov (101 ta) joylashgan.

Shuningdek, Zarbdor (47 ta), Paxtakor (44 ta), Do'stlik (44 ta), Forish (41 ta), Zomin (41 ta), Baxmal (37 ta), Mirzacho'l (28 ta), Arnasoy (25 ta), Zafarobod (11 ta) hamda Yangiobod (10 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.